

KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2025

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiylar.com>



KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Bozorboyev Abbosjon, Ravshanov Shavkat

KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI

MUAMMOLARI..... 6-9

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI 10-12

Odinayev Mirjalol

"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA

QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA

SOLISHDA INNOVATSION YECHIM 13-18

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Karimov Nurbek

TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON

TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI 19-22

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

TEMURIY MALIKALARLING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI 23-25

Xalilov Baxodir

ZAMONAVIY KUTUBXONALARLING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY

VILOYATI MISOLIDA 26-31

Xoliqova Ra'noxon

"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI, GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI" 32-34

Xasanova Nargiza

YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB

AHAMİYATI 35-38

IQTISODIYOT FANLARI

Salomov Temurbek

THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:

A CASE STUDY OF UZBEKISTAN 39-43

Raxmanov Ulugbek

TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ

TAHLILIY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH 44-45

Toshtemirov To'lqin

KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI 46-49

Mansurova Sayyora

INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA

ULARNING KO'ChMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI 50-53

Rajabov Alibek

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH 54-57

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM

GLOBAL EXPERIENCES 58-60

FALSAFA FANLARI

Abdullayev Sodiqjon

MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK QADRIYATLARI..... 61-66

Gafurova Munojat

O'ZBEKİSTONDA GENDER TENGLİGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTİK MUNOSABATLARI..... 67-70

Davronov Bahodir

SUN'İY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHİTİNİNG GUMANİTAR QADRIYATLARGA NISBATAN ASİMMETRİK MUNOSABATI..... 71-76

Latipov Sardor

KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI 77-81

FILOLOGIYA FANLARI

Xoliyorova To'lg'anoy

O'ZBEK TİLİ MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMİY TADQIQOTLARDAGI O'RNI..... 82-83

Ro'ziyev Temur

ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNİNG O'RNI 84-92

Gulmuradova Sobira

"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFİZMLARNING MILLİY - MADANIY XUSUSİYATLARI..... 93-95

Qosimova Malika

SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA 96-99

Bahromjonova Shahnoza

*HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMİY MEROSI:
FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLIL* 100-102

Ayimbetova Damekhan

*ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI
TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI* 104-107

YURIDIK FANLARI

Komilov Avazbek

*INTIZOMİY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAqidagi qaror,
UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR*..... 108-110

Shamsitdinova Manzura

TEACHING LISTENING COMPREHENSION 111-112

Xadjiyev Azizbek

"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOYILINING XALQARO QONUNCHILIK AMALIYOTIDA YORITILISHI..... 113-116

Уктамов Комрон

РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... 117-123

<i>Исмоилов Бекрузбек</i>	
<i>ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</i>	<i>124-129</i>
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qo'shmurodova Aziza</i>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....</i>	<i>130-133</i>
<i>Mamatqosimova Nodira</i>	
<i>SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI</i>	<i>134-137</i>
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
<i>TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</i>	<i>138-141</i>
<i>Jabborova Umida</i>	
<i>TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....</i>	<i>142-144</i>
<i>Xujanazarova Nozima</i>	
<i>RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARINI YARATISH.....</i>	<i>145-148</i>
<i>Aripjanova Dinora</i>	
<i>RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....</i>	<i>149-151</i>
<i>Dosanova Gulbanu</i>	
<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....</i>	<i>152-154</i>
<i>Isokov Ravshanbek</i>	
<i>INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....</i>	<i>155-160</i>
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza</i>	
<i>XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RNI.....</i>	<i>161-163</i>
<i>Nabiyeva Umida</i>	
<i>GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....</i>	<i>164-166</i>
PSIXOLOGIYA FANLARI	
<i>Polvanov Rasulbek</i>	
<i>INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH</i>	<i>167-172</i>
<i>Усманова Лилия</i>	
<i>ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....</i>	<i>173-176</i>

YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB AHAMIYATI

Xasanova Nargiza Maxsatjonovna

Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasи mudiri, t.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada XXI asr ilm-fani rivoji, texnika va texnologiyalar taraqqiyoti, yangi innovatsiyalar zamoni ekanligi, dunyoda minglab yangi ixtiolar, g'oyalari va texnologik echimlar yaratilayotganligi sabab deyarli barcha sohalardagi o`zgarishlar, insonlar hayat tarzini yaxshilanayotganligi, ilm-fan yutuqlarida ayol-qizlarning faol ishtiroki, ularning taraqqiyot rivojining ortib borishiga qo'shayotgan xissasi haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: XXI asr, ilm-fan, YuNESKO, "O'zbekiston – 2030", "KIWIE-2025", texnologiyalar, taraqqiyot, innovatsiya, g'oya, ayol-qizlar, aqli shaharlar", "aqli uy", "robotexnikalar", sun'iy intellekt, kvant kompyuterlar, genetik muhandislik, Ayti (IT).

A NEW ERA: THE URGENTEOUS IMPORTANCE OF WOMEN'S PARTICIPATION IN SCIENTIFIC INNOVATIONS

Khasanova Nargiza Maksatjonovna

Head of the Department of "Methodology of Socio-Economic Sciences" of the Andijan Regional Pedagogical Skills Center, Doctor of Philosophy (PhD)

Annotation. The article discusses the development of science, technology, and technology in the 21st century, a time of new innovations, thousands of new inventions, ideas, and technological solutions being created in the world, changes in almost all areas that are improving people's lifestyles, the active participation of women and girls in scientific achievements, and their increasing contribution to the development of progress.

Key words: 21st century, science, UNESCO, "Uzbekistan - 2030", "KIWIE-2025", technologies, development, innovation, idea, women and girls, "smart cities", "smart home", "robotics", artificial intelligence, quantum computers, genetic engineering, AI (IT).

Kirish XXI asr – bu ilm-fan va texnologiyalar asri, yangiliklar va innovatsiyalar zamoni. Har kuni dunyoda minglab yangi ixtiolar, g'oyalari va texnologik echimlar yaratilayapti. Bu jarayon nafaqat iqtisodiyot yoki sanoat sohasiga, balki ta'lif, tibbiyat, ekologiya deyarli inson hayotining barcha bo'g'inlariga kirib borib kundalik hayotiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Insoniyat ilm-fan va texnika rivojlanishida haqiqiy inqilobga guvoh bo'lmoqda. Ularning aksariyati hayotimiz sifatini optimal darajada yaxshilashga va mavjud muammolarni hal qilishga qaratilmoqda. Masalan, "aqli shaharlar", "aqli uy", "elektron mashinalar", "onlayn ta'lif platformalari" va "qayta tiklanuvchi energiya manbalari" "robotexnikalar" va xokozolar – yangi innovasiyalarning yaqqol namunasidir.

Ilm-fan taraqqiyot poydevori bo'lishi bilan birga, insonning olamni anglashini osonlashishi, hayat ko'lamin yaxshilanishi va rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Yangi tadqiqotlar, laboratoriya tajribalari va nazariy ishlanmalar kelajakdagи texnologiyalar uchun asos bo'ladi. Masalan, sun'iy intellekt, kvant kompyuterlari yoki genetik muhandislik sohasidagi yutuqlar shu bugungi kunning etuk ilm-faniga tayanadi.

Bugungi kunda ilm-fandagi yangi innovasiyalar – amaliyotga tatbiq etilganda shunchaki yangi g'oya bo'libgina qolmey, balki uning hayatga tatbiq qilinishi davomida hayat tarzini

o`zgartirishga xizmat qilishi lozim. Ya`ni u iqtisodiy samaradorlikni oshirishi, hayot sifatini yaxshilashi, ekologik muammolarni hal etishi yoki ta'lif tizimini modernizasiya qilishda muhim rol o'ynashi shart va zarurdir.

Asosiy qism Ma'lumki "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ilmiy va innovatsion faoliyat uchun zamonaviy infratuzilmalar yaratish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilangan [2]. Xususan, ilm-fanga yo'naltiriladigan mablag'larning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2025-yilga qadar 6 marta, 2030-yilgacha esa 10 marta oshirilishi belgilangan. So`nggi yillarda ilm – fanga bo`lgan e'tibor hususan, ayol-qizlarning ilm-fan bilan shug`ulanishiga imkoniyatlar yaratish ularni har tamonlama qo'llab quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalariga aylangan.

O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug`ullanish uchun yaratilgan shart-sharoitlar natijasida olima ayollar safi kengayib, ilm-fan taraqqiyotida ayollar ulishi ortib bormoqda. Hususan birgina Koreyada o'tkazilgan "KIWIE-2025" xalqaro ko'rgazmasida 30 dan ziyod mamlakatlarning 350 dan ortiq olima, ixtirochi va tadbirkor xotin-qizlari orasida texnika, texnologiya, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, yengil sanoat, kimyo va sanoatning turli yo'nalishlari bo'yicha mamlakatimiz olima ayollari ham o'z ixtirolari hamda innovatsion ishlanmalari bilan ishtirok etib, mazkur yo'nalishlar bo'yicha 6 ta oltin, 8 ta kumush, 5 ta bronza medalni qo'lga kiritdi [4].

Muhokama Bugungi globallashgan va texnologik taraqqiyot asrida inovatsiya — har bir sohaning yuragiga aylangan davrda ayollar ishtiroki muhim rol o'ynamoqda. Ularning turli zamonaviy tashabbuslari va ixtirolari tobora ortib bormoqda. Yanada foydali tomoni ayollar nafaqat muammolarni ko'radi, balki ularga ijodiy, insonparvar va barqaror echimlar taklif eta oladi. Ularning kreativ fikrlash qobiliyati, texnologik savodxonligi va tashabbuskorligi orqali jamiyatda jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

Masalan:

1. Amaliyotga yaqinlik — Ayollar o'z hayotidagi real muammolardan kelib chiqib echimlar yaratadi.
2. Ijtimoiy ta'sir — Ko'plab ayollar innovasiyasi jamiyat foydasiga xizmat qiladi (ta'lif, salomatlik, ekologiya).
3. Insonparvar yondashuv — Ayollar texnologiyaga emas, insonga qarata e'tibor beradi.

Misollar:

Tibbiyotda: Ayol olimlar tomonidan onalik, bolalar salomatligi va ayollar kasalliklari bo'yicha yangi echimlar ishlab chiqilmoqda.

Ayti (IT) sohasida: Ayollar jamiyat muammolarini hal qilishga qaratilgan mobil ilovalar (zo'ravonlikka qarshi, ta'lif, psixologik yordam) yaratmoqda.

O'zbekistonda: Yosh qizlar Technovation Girls tanlovida mobil ilovalar orqali ijtimoiy masalalarga innovasion echim taklif etmoqda. Qishloq hududlaridagi ayollar startaplar orqali o'z biznesini boshlamoqda.

Natijalar Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqda-ki O'zbekistonda ayollarning 90 foizdan ortig'i savodli. Imkon berilsa ular oliy ma'lumot va kasbdan qochmaydi. Ularning 72 foizi ilm-fan sohasiga qiziqish bildirgan shuningdek o'zlarini shu yo'nalishda sinab ko'rish istagini bildirgan. Biroq xotin-qizlar ilm-fanga kirib kelishda ijtimoiy qiyinchiliklar 65%, moliyaviy qiyinchiliklar 48% va oilaviy majburiyatlar 53% bilan to'qnash kelmoqda. Mazkur

muammolarga qaramay, O'zbekistonda olma ayollar mavjud qiyinchiliklarni yengib o'tib o'z faoliyatlarini a'lo darajada olib bormoqdalar.

Hususan fanning turli sohalarida olma ayollar tomonidan yangilik va ixtiolar qilinmoqda. Masalan hozirgi vaqtida mamlakatimizda 6 ming 200 dan ortiq xotin-qizlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanmoqda, ilmiy ishlanmalarning 25 foizini ular tomonidan yaratilmoqda. Ayni damda ularning orasida xalqaro darajada e'tirof etilayotgan ilm-fan vakillari ham bor [3].

YuNESKO bergen ma'lumotlariga ko'ra, ayol-olimalar ulushi Rossiyada – 41%, Fransiyada – 26%, Germaniyada – 28%, Buyuk Britaniyada – 38%, Xitoyda – 37%, Janubiy Koreyada – 18%, O'zbekistonda esa 48%ni tashkil qilmoqda [5].

Bu yaxshi ko'rsatgich albatta, biroq ularning safini yanada kengaytirish zarur, sababi bugun mamlakat aholisining yarmini (06.08.2025 xolatiga ko'ra 18826897 nafar) [6] ayol-qizlar tashkil etmoqda, demak ayol-qizlar doirasidagi masalalar ham shunga yarasha, ularga tegishli bo'lgan muammolar (masalan ayrimlarini sanab o'tilsa, hozirda dolzarb hisoblanayotgan huquqiy bilim, tibbiy madaniyat, jinsiy savodxonlik, kabilar) ni o'zlaridek tushunishi, bartaraf etishi qiyin bo'lgan vaziyatlardan. Muammolarga esa bugun shunchaki qarash yaramaydi.

Xulosa Muammolarga echimni – ilmiy yondashuv orqali amalga oshirish mumkin. Yangi davrda muammolarni intuitsiya yoki taxminga tayanmasdan, balki aniq tahlil, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar orqali hal etish talab qilinadi. Ilmiy yondashuv muammolarni tizimli tahlil qilish, ularga samarali va barqaror echimlar topish imkonini beradi. Masalan, global isish, oziq-ovqat xavfsizligi yoki suv tanqisligi, havoning ifloslanishi kabi ekologik muammolar, turli kasalliklarni oldini olish, axborot xurujlar, kiber xavfsizlik, shuningdek ayol-qizlar o'rtaida uchrayotgan muammolarni hal etishda ilm-fan va innovatsiya beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Yangi davr – bu aql, bilim va texnologiya ustuvor bo'lgan innovatsiyalar zamoni. Ilm-fan va innovasiyaga sarmoya kiritish esa – kelajak avlod uchun eng muhim investitsiyadir. Har bir inson o'z g'oyasi, bilim va faolligi orqali jamiyatni yaxshilashi, muammolarga ilmiy echim taklif qilishi mumkin. Bizning vazifamiz innovatsiyalar yaratishda va hayotga tadbiq etishda – izlanishdan to'xtamaslik va kelajakni chiroyli va mustahkam qurishdir.

Ayollar ishtirokisiz esa innovatsiya to'liq bo'la olmaydi. Ularning o'ziga xos didi, mehri va ijodiy qarashi yangi echimlar yaratishda rivojlangan mamlakatlar singari O'zbekistonda ham muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun jamiyat ayollarning ilmiy va texnologik salohiyatini rivojlantirishga, ularning g'oyalarini qo'llab-quvvatlashga harakat qilishi kerak. Jamiyatdagi ayollarga qo'yilgan ayrim stereotip to'siqlarni olib tashlash, hali ham mavjud bo'lgan ayrim gender muammolarga to'liq barham berish, ayol-qizlarning ham oila, farzand, uy yumushlaridan tashqari o'z qiziqishlari, intilishlari bor ekanligiga ahamiyat qaratish zarur.

Zero ilm talab etish, har bir erkak singari ayollarning ham haq-huquqlaridan ekanligi nech asr avval muqaddas hadislarda keltirilgan, shuningdek mamlakatimiz Asossiy Qonun hujjalari har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlangan (53-modda), Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi(58-modda) belgilangan[1].

Adabiyotlar/Litteratura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son) <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to`g`risida 11.09.2023 yildagi PF-158-son, Farmoni. <https://lex.uz/docs/-660041>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqidan. 2025 yil 6 mart.
<https://president.uz/oz/lists/view/7928>.
4. O'zbekiston ixtirochi ayollari Koreyada o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmada oltin medallarni qo'lga kiritdi. https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-ixtirochi-ayollari-koreyada-otkazilgan-xalqaro-korgazmada-oltin-medallarni-qolga_kiritdi_724361.
5. O'zbekiston olima ayollari Forumi o'tkazildi
<https://www.academy.uz/uz/news/ozbekiston-olima-ayollari-forumi-otkazildi>.
6. Demografiya. Murojaat etilgan sana 06.08.2025. <https://gender.stat.uz/uz>

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Barcha huqular himoyalangan.

© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.